



UDK: 911.6

Behzodbek JONIQULOV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: joniqulovbezod30071998@gamil.com

GulDPI dotsenti, g.f.n A.Yuldashov taqrizi ostida

GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE FORMATION OF URBANIZATION PROCESSES IN THE SYRDARYA REGION

Annotation

This article provides a scientific analysis of the urban system of the Syrdarya region and the processes of its formation. The study identifies the natural-geographical, socio-economic, and historical factors that influenced the development of the five existing cities in the region. In addition, it highlights the spatial distribution of the cities, their subordination to regional and district levels of administration, and the specific features of urbanization processes in the area.

Keywords: population, city, urbanization, village, settlement, transport, migration.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ В СЫРДАРЬНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье научно проанализирована система городов Сырдарьинской области и процессы их формирования. В исследовании выявлены природно-географические, социально-экономические и исторические факторы, оказавшие влияние на формирование пяти существующих городов области. Кроме того, освещены территориальное расположение городов, их подчинённость областному и районному уровням управления, а также особенности урбанизационных процессов в регионе.

Ключевые слова: население, город, урбанизация, село, населённый пункт, транспорт, миграция.

SIRDARYO VILOYATIDA SHAHARLASHUV JARAYONLARINI SHAKLLANISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatining shaharlar tizimi, ularning shakllanish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyat hududida mavjud beshta shaharni shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillar aniqlangan. Shuningdek, shaharlarning hududiy joylashuvi, ularning viloyat hamda tuman darajasidagi boshqaruvga bo'ysunishi, viloyatdagi urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: aholi, shahar, urbanizatsiya, qishloq, aholi punkti, transport, migratsiya.

Kirish. Shaharlar mamlakat va mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishida asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Ular sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish, innovatsiya va infratuzilma markazlari sifatida muhim rol o'ynaydi. Yirik zavodlar, fabrikalar va ishlab chiqarish korxonalari odatda shahar atrofida joylashadi. Hozirgi davrda eng tez rivojlanayotgan global jarayonlardan biri bu urbanizatsiya jarayonidir. Urbanizatsiya jarayoni XX asrning oxiri va hozirgi yashayotgan asrimizning boshida ayniqsa jadal rivojlandi va sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Agar 1900-yilda dunyo aholisining atigi 13,6 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, 2000-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli to'rt barobarga oshib, 47,5 % ga yetdi, 2015-yilda jahon aholisining 54% shaharlarda yashagan bo'lsa, 2024-yilda 56 % ga yetdi, 2050-yilga kelib jahon aholisining 66 % shaharlarda yashashi BMT tomonidan prognoz qilinmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-sonli Farmoni ushbu yo'nalishdagi muhim huquqiy asoslardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur farmonda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy uy-joy siyosatini shakllantirish, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish orqali shaharlarning jadal o'sishini ta'minlash masalalari belgilab berilgan. Shuningdek, ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarini jalb etish hamda kam va o'rta daromadli aholi uchun arzon turar joylar barpo etishga yo'naltirilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari nazarda tutilgan. Shu bilan birga, aholining qishloq hududlardan shaharlarga erkin migratsiyasini ta'minlash maqsadida ma'muriy tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha ham muhim vazifalar belgilangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaharlar, ularning vujudga kelishi, taraqqiy etishi, ularning iqtisodiy va demografik o'sishi hamda hududiy kengayishi bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda shahar so'zining keng qamrovli doirada izohlanishi o'ta muhimdir. Tuzilishi jihatidan har bir shahar yagona va yaxlit tizim bo'lib, uni organizm sifatida tasvirlash mumkin [2].

O'tgan asrda mamlakatimizda va xorijda shaharlashuv jarayonlari, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, aholining demografik holati, jumladan, migratsion jarayonlar, aholining o'sishi, turmush darajasi va shaharlarning O'zbekiston va boshqa xorijiy davlatlar tarmoq xo'jaligida tutgan o'rni yoritilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Xususan urbanizatsiya jarayonlari bo'yicha M.Qoraxonov, S.N. G.M.Lappo, A.S. Buslov, S.A.Gavrilova, S.A.

Kovalev, Z.M.Akramov, T.I.Raimov, I.R.Mullajonov, O.B.Ata-Mirzayev, L.P.Maksakova, N.M.Fayziyev, A.Soliyev, S.K.Ziyodullayev, S.K.Tashtayeva, Z.Rayimjonov, E.S.To'xtayev va boshqalarning asarlarini alohida ahamiyatga molik. Yuqorida tilga olingan olimlar asarlarining ilmiy qiymatini inkor etmagan holda shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur asarlarda tadqiq etilayotgan davrda shaharlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ularni barqaror rivojlantirish yo'llari, shaharlarga oid migratsiya masalalari o'sha vaqt mafkurasi nuqtai nazaridan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari hamda muallifning bevosita o'rganayotgan hududlarda kuzatuv ishlari asosida tarixiy, statistik, geografik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shaharlarning shakllanishi va ularning keyingi bosqichlardagi rivojlanish jarayonlari ko'plab omillar, xususan, geografik sharoit bilan bevosita bog'liqdir. Aholi punktlarining joylashuvi ko'pincha tabiiy resurslarga yaqinligi, transport-kommunikatsiya yo'llarining tugun nuqtalarida joylashishi, unumdor yerlarning mavjudligi hamda mudofaa nuqtai nazaridan qulay topografik sharoitlarga ega bo'lishi bilan aniqlanadi. Ushbu omillar tarixan shaharlar uchun eng muhim joy tanlash mezonlari sifatida xizmat qilgan [3].

Shuningdek, yirik aglomeratsiyalar shakllanishi ya'ni bir nechta aholi punktlarining o'zaro yaqinlashuvi va integratsiyasi orqali yagona urbanistik makonga aylanishi zamonaviy shaharlarning rivojlanishidagi yangi bosqichni ifodalaydi [4].

Sirdaryo viloyatida shaharlashuv jarayonlari tarixiy davrlar davomida rivojlanib borgan. Sirdaryo viloyati 1963-yil 16-fevralda tashkil etilgan mamuri hududi birlik hisoblanib ushbu viloyatning mamuriy hududiy tuzilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak viloyat 8 ta qishloq tuman, 5 ta shahar, 25 ta shaharcha va 257 ta qishloq tipidagi aholi punktlari mavjud. **Yangiyer shahri** va **Guliston shahri** hududidagi dastlabki yirik urbanistik markazlar hisoblanadi.

1 jadval

Sirdaryo viloyati shaharlari haqidagi umumiy ma'lumot

Shahar nomi	Tashkil topgan yil	Buysinuvchi hududi	Maydon km ²	Aholisi ming kishi (2024)	Aholi zichligi
Guliston	1961	Sirdaryo viloyati	36,2	99,3	2743
Yangiyer	1957	Sirdaryo viloyati	30	48,1	1603
Sirdaryo	1971	Sirdaryo tumani	16,9	37,2	2201
Shirin	1972	Sirdaryo viloyati	13,4	19,4	1447
Baxt	1980	Sirdaryo tumani	5,3	14,2	2679

1-jadval ma'lumotlarini tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, Sirdaryo viloyati hududida joylashgan 5 ta shaharlarning uchtasi viloyatga, ikkitasi esa tumanga bo'ysinuvchi shaharlar sirasiga kiradi. Ularning shakllanish davrlariga e'tibor qaratilsa, Yangiyer shahri viloyatdagi eng birinchi tashkil etilgan urbanistik markaz sifatida ajralib turadi, Baxt shahri esa eng yosh shahar hisoblanadi. Ushbu holat Sirdaryo viloyati hududida shaharsozlik jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanganini hamda urbanizatsiya faolligining XX asrning ikkinchi yarmida sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi.

O'zbek tarixchi olimasi N.J.Mirzayevaning tarixiy qarashlariga ko'ra Sirdaryo viloyatidagi 5 ta shahardan 3 tasining tashkil etilish asosi Mirzacho'l hududida rus qishloqlarining tashkil etilishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Mirzacho'l hududida rus qishloqlarining bunyod etilishiga qator omillar ta'sir ko'rsatgan. Bunday omillar qatoriga viloyatda 1874-1889-yillarda temir yo'lining o'tkazilinishi, 1907-1913-yillarda o'sha davridagi Romanov hozirgi Do'stlik kanalining o'tkazilinishi, viloyat hududida yangi qishloq ho'jaligi yerlarini o'zlashtirilinishi negizida Rossiyaning turli hududlaridan aholining ko'chib kelishini misol tariqasida bemalol ketrirsak bo'ladi.

2 jadval

Sirdaryo viloyatining rus qishloqlari negizida shakllangan shaharlari

Rus qishlog'ining nomi	Rus qishlog'ining tashkil etilgan yili	Rus qishlog'i negizida tashkil etilgan shahar	Shahar maqomini olgan yili
Duxovskiy	1889-yil	Guliston	1961-yil
Knyazk	1905-yil	Guliston	1961-yil
Spasskiy	1606-yil	Guliston	1961-yil
Samsonova	1913-yil	Sirdaryo	1971-yil
Velikiy- Alekseyovskiy	1913-yil	Baxt	1980-yil

Sirdaryo viloyatida joylashgan aholi punktlarining shakllanish 130 yillik tarixga borib taqaladi. Tarixchi olim V.F.Karavaevning Mirzacho'lda rus qishloqlarining tashkil topish sanalari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlariga ko'ra hozirgi Sirdaryo viloyati hududidagi birinchi tashkil etilgan rus qishlog'i Duxovskiy deb nomlanib ushbu qishloq hozirgi Sirdaryo viloyatining markazi Guliston shahri hududiga to'g'ri keladi. Ushbu rus qishlog'i o'sha davrda Turkiston general gubernatori bo'lib ishlagan S.I.Duxovskiy sharafiga nomlangan bo'lib Mirzacho'lda tajriba ekin uchastkalarini ochilishi negizida tashkil etilgan edi. 1889-yilda tashkil etilgan Duxovskiy rus qishlog'i 70-100 xo'jalikga mo'ljallangan bo'lib yillar davomida kengayib borgan. Ushbu qishloqning dastlabgi aholisi temiryo'l qurilishi ishchilaridan va dehqonlardan iborat bo'lgan [5].

Sirdaryo viloyatidagi asosiy aholi punktlarining shakllanishi 1880-yillar oralig'ida Mirzacho'lda temiryo'l izlarining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq jarayondir. Sirdaryo viloyati davlat arxivi ma'lumotlariga ko'ra hozirgi Guliston shahri hududida 1922-yilda Голодная Степь o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak hududning tabiiy geografik shaharoiti bilan uzviy bog'liq holda "Och dasht" deb nomlandan temiryo'l stansiyasi tashkil etilgan.

Keyinchalik 1905-yilda Mirzacho'lni irigatsion maqsadida o'zlashtirish ishlarini jonlantirgan N.K.Romanov tomonidan Kniyask qo'rg'oni deb nomlangan rus posolkasi tashkil etiladi. Mirzacho'lni o'zlashtirish maqsadida Rossiyadan katta miqdorda aholining ko'chib kelishi tufayli hozirgi Guliston shahrining Do'stlik qo'rg'oni deb nomlangan qismida 1906-yilda Spasskiy posyolkasi tashkil etiladi. 1910-yildan boshlab Duxovskiy, Kniyask va Spasskiy rus qishloqlarini yagona yirik qishloq nomida birlashtirish ishlari boshlandi. 1911-1914-yillar oralig'ida ushbu uch posolka yagona Buyuk Spasskiy rus qishlog'i nomiga birlashtirildi [6].

1922-yildan boshlab Buyuk Spasskiy rus qishlog'iga Mirzacho'l nomi berildi [7]. Mirzacho'l qishlog'ining geografik joylashuvi o'ziga xos strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, ushbu hududdan temiryo'l magistralining o'tganligi, muhim transport-logistika markazi hisoblangan temiryo'l stansiyasining mavjudligi hamda Romanov kanalining hududni kesib o'tishi qishloqning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omillar sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur omillar Mirzacho'l qishlog'ining istiqbolda viloyat darajasidagi markaziy aholi punkti sifatida shakllanishi uchun zarur infratuzilma va salohiyat mavjudligini ko'rsatgan.

Sirdaryo viloyatidagi birinchi tashkil etilgan shaharcha bu hozirgi viloyat markazi Guliston shahri hududiga to'g'ri kelib 1952-yilda Mirzacho'l shaharchasi deb nomlangan. 1959-yilda Mirzacho'l shaharchasining nomi rasmiy ravishda "Guliston" deb o'zgartirildi [8]. Shu tariqa viloyatda "Guliston" nomi bilan ataluvchi yangi aholi punkti shakllandi va keyinchalik viloyatning ma'muriy hamda iqtisodiy markaziga aylandi. 1961-yil 8-may sanasidan boshlab Guliston shaharchasiga shahar maqomi berildi. 1963-yil 26-nayabir sanasida Guliston shahri Sirdaryo viloyatining markazi qilib bergilandi.

Sirdaryo viloyati shaharlari orasida birinchi bo'lib shahar maqomini olgan hudud bu Yangiyer shahri hisoblanib 1957-yilda shahar maqomini olgan. Sirdaryo viloyatida joylashgan 5 ta shahar orasida faqatgina Yangiyer va Shirin shaharlarining tashkil topishi Mirzacho'lda rus qishloqlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq emas. Ushbu shaharni shakllanishi va rivojlanishida eng muhim omillardan biri transport omili hisoblanadi. Transport infratuzilmasi shahar hududiy tuzilmasining asosiy tayanch komponenti bo'lib, u shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy tashkil etilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holatni urbanizatsiya nazariyalari, funksional-hududiy tizimlar konsepsiyasi hamda transport-geografik yondashuvlar orqali ilmiy jihatdan asoslash mumkin [9]. Shaharni tashkil etish jarayonida transport tarmog'i asosiy bosh omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki transport infratuzilmasi shahar makoniy tuzilmasining markaziy yadrosini shakllantirib, turar-joy massivlari, umumshahar va tuman markazlari, ishlab chiqarish zonalari, sog'liqni saqlash muassasalari, sport majmualari va boshqa ijtimoiy infratuzilma elementlarini o'zaro bog'laydi. Shu jihatdan, transport omili shaharlarning hududiy tashkil etilishi, funksional integratsiyasi hamda ularning barqaror rivojlanishini belgilovchi strategik determinant sifatida qaraladi [10].

Sirdaryo viloyatida Yangiyer shahridan tashqari Guliston, Sirdaryo va Baxt shaharlarining shakllanishi hamda ularning barqaror rivojlanish jarayonida transport omilining roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Xususan, M34 avtomobil yo'li viloyatdagi barcha shaharlar hududidan kesib o'tuvchi asosiy transport magistrali sifatida hududiy integratsiya va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida muhim tizimiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, aholisi soni eng ko'p bo'lgan Guliston shahri hududidan Do'stlik kanalining, Yangiyer shahri hududidan esa Janubiy Mirzacho'l kanalining o'tishi ushbu shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari va aholi sonining ortishiga sezilarli darajada zamin yaratgan.

Viloyatdagi maydoni va aholisi soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi shahar bu Yangiyer shahridir. Yangiyer - so'zining manosi "yangi" ilgari bo'lmagan, endi yuzaga kelgan, "yer" joy maydon so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan [11]. Yangiyer shahrining maydoni 30 km² bo'lib Sirdaryo viloyatining Xovos va Boyovut qishloq tumanlari bilan tutashgan. Yangiyer shahri Toshkent-Xovos temir yo'li, Katta o'zbek trakti bo'yida, janubiy Mirzacho'l kanali yoqasida joylashgan [12]. Shahar aholisi 2025-yil ma'lumotlari bo'yicha 49,4 ming kishidan oshiq. Yangiyer Sirdaryo viloyatida joylashgan 4 shaharlar orasida aholisi soni bo'yicha Gulistondan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu shahar 1957-yil 15-martda Mirzacho'l hududida tashkil etilgan. Viloyatda maydoni bo'yicha 2-o'rinda turishiga qaramasdan Yangiyer shahri viloyat tarixida birinchi tashkil etilgan shahar bo'lib qolmoqda. Yangiyer 1957-yilda Och dasht (ruscha: Голодная степь) hududini o'zlashtirish jarayonlari doirasida tashkil etilgan aholi punktidir. Mazkur shaharni tashkil etishdan maqsad yirik meliorativ va qishloq xo'jaligi ishlarini amalga oshirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, shuningdek, suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish bo'lgan. Yangiyerning Katta O'zbek trakti (hozirgi M-39 avtomobil yo'li) va Sarkisov nomi bilan ataluvchi Janubiy Mirzacho'l kanali chorrahasida joylashgali geografik jihatdan muhim strategik ahamiyatga ega.

Shirin Sirdaryo viloyatida joylashgan shahar bo'lib, uning shakllanishi 1972-yilda hozirgi Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasining (IES) qurilishi bilan bog'liq. Shirin shahri Sirdaryo viloyati markazi Guliston shahridan 52 km masofada joylashgan. Shaharning okean sathidan o'rtacha balandligi 328 metrni tashkil etib ushbu ko'rsatkich bo'yicha viloyat shaharlarida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Dastlab bu hudud 1943-yilda Farhod GES qurilishi tufayli ishchilar uchun tashkil etilgan posyolka sifatida vujudga kelgan.

Viloyat hududi va aholisi soni bo'yicha uchinchi o'rinni egallovchi shahar - bu Sirdaryo qishloq tumaniga bo'ysinuvchi Sirdaryo shahridir. Ushbu shaharning shakllanishi Mirzacho'lda oxirgi tashkil etilgan rus qishloqlaridan biri aniqroq qilib aytadigan bo'lsak 1913-yilda rus hukumati tomonidan Mirzacho'lni o'zlashtirish va ushbu hududa aholi punktlarini yaratish maqsadida tashkil etilgan "Samsonova" rus qishlog'iga borib taqaladi. 1971-yilda shahar maqomiga ega bo'lgan Sirdaryo Mirzacho'lni o'zlashtirish maqsadida kelgan rus aholisi tomonidan barpo etilgan Samsonovo posyolkasi negizida shakllangan. Sobiq Ittifoq davrida shaharda "Tashselmash" zavodi filiali, Yangiyo'l poyabzal fabrikasi filiali hamda Sirdaryo davlat pedagogika instituti kabi yirik sanoat va ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan [13]. Shaharning okean sathidan o'rtacha balandligi 249 m ni tashkil etadi. Hidrografik jihatdan Sirdaryo shahri Sirdaryo daryosining chap sohilida daryodan 10 km uzoqlikda joylashgan. Hozirgi kunda shaharda 37 mingdan ortiq aholi yashab kelmoqda, shaharning maydoni 16,9 km² ni tashkil etadi. Sirdaryo shahrida refrigerator deposi, elektr texnika uskunalar va apparaturalari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Peng Sheng" zavodida kafel hamda santexnika mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Sirdaryo viloyatidagi maydoni eng kichik shahar hisoblanuvchi Baxt shahri 1980-yilda shahar maqomini olgan bo'lib, maydoni 5,3 km² aholisi 14 200 dan ortiq. Ushbu shahar viloyatdagi shaharlar orasida aholi zichligi bo'yicha viloyat markazi bo'lgan Guliston shahridan keyingi 2-o'rinni egallaydi. 1-jadvaldagi viloyatdagi shaharlar aholisi zichligini taxlil qiladigan bo'lsak Guliston shahrida aholi zichligi 2743 kishini tashkil etsa, ushbu ko'rsatkich Baxt shahrida 2679 kishini tashkil etadi, oradagi farq atiga 64 kishi. Respublikamizdagi muhim M34 avtomobil yo'lining Baxt shahridan o'tganligi ushbu aholi punktlarining tashkil etilishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Baxt shahrining tashkil etilishi 1913-yilda rus imperator oilasining vorisi bo'lgan buyuk knyaz Aleksey Nikolaevich Romanov sharafiga nomlangan. Ushbu rus qishlog'i Mirzacho'lni o'zlashtirish maqsadida qurilgan rus qishloqlarining eng oxirgisi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Sirdaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi tabiiy-geografik sharoit, transport infratuzilmasi, ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Shaharlarning rivojlanish bosqichlari ularning funksional yo'nalishi va hududiy joylashuviga qarab farqlanadi. Shaharlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur. Urbanizatsiya jarayonlarini barqaror rivojlantirish maqsadida ekologik muvozanatni saqlovchi hududiy rejalashtirish tizimini takomillashtirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-sonli farmoni.

2. Hall, P. *Cities in Civilization: Culture, Innovation, and Urban Order*. — London: Weidenfeld & Nicolson, 1998. - 1180 p.
3. Саушкин Ю. Г. *Общие законы размещения производства*. - М.: Мысль, 1967. - 384 с.
4. Лаппо Г. М. *География городов*. - М.: Владос, 2001. — 367 с.
5. Мирзаева Н. *Мирзаҷўлнинг ўтмиш тарихи*. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2016. - 35 б.
6. *Развитие народонаселения и проблемы трудовых ресурсов республик Средней Азии (Социально-демографический анализ)*. - Ташкент: Фан, 1988. - 146 с.
7. Сирдарё вилояти давлат архиви. 366-фонд, 9-рўйхат, 359-иш, 28-варок.
8. Сирдарё вилояти давлат архиви. 360-фонд, 10-рўйхат, 425-иш, 25-варок.
9. Загорский И. О., Володыкин П. П., Рыжкова А. С. *Транспортная инфраструктура*. - Хабаровск: Изд-во Тихоокеанского гос. ун-та, 2015. - 228 с.
10. Лобанов Е. М. *Транспортная планировка городов*. - М.: Транспорт, 2011. — 240 с.
11. *O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati*. II jild. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. - 283 b.
12. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. *Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий җуғрофияси*. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994. - 209 б.
13. Эрбутаева Ў. *Сирдарё вилояти тарихи: ўқув кўлланма*. - Тошкент: Камалак, 2016. - 88 б.
14. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архиви (ЎзР МДА). И-7-фонд, 1-рўйхат, 5053-иш, 18-варок.